O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

7. U.Ibaydullayeva, M.Tirkasheva Oilaviy nizolar va ajrimlar – jamiyat zavoli Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman Jizzax-2023 2-qism.
8. Ayol, oila va jamiyat / Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari / F. Otaxonov. – T.: 2007 – 260 b.

OILALARDA YUZAGA KELAYOTGAN ER-XOTIN O‘RTASIDAGI AJRIMLARNING JAMIYAT UCHUN SALBIY OQIBATLARI

ps.f.f.d. Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna,
Tirkasheva Mavluda Akramovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilalarda er-xotin o‘rtasida yuz berayotgan ajrimlari haqida so‘z yuritilib, unda oila va nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari, ajrimlarning jamiyat uchun salbiy oqibatlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o‘rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Oila va nikoh munosabatlari, er-xotin, oilaviy hayotga tayyorlash, milliy o‘ziga xoslik, nizolar, ajralishlar, salbiy asoratlar.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom muhitni yaratish, oila qadriyatlari va oiladagi shaxslararo munosabatlarini shakllantirish orqali oilaviy munosabatlarini barqarorlashtirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Darhaqiqat, oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi sanaladi. Har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan hamda oilasida ijobiy muhit hukm surgan insongina o‘zini to‘laqonli baxtiyor his eta oladi. Afsuski, oilalarda yuzaga kelayotgan er-xotin o‘rtasidagi yuzaga kelayotgan oilaviy ajrimlar farzandlarning ko‘ngli kemtik, hayotdan alamzada bo‘lib voyaga yetishi yoki zararli odatlarga ruju qo‘yishi, jinoyat ko‘chasiga kirishiga sabab bo‘layotgani haqida qancha gapirilmasin, oila muqaddasligi, sha’ni, obro‘si, an’ana va qadriyatlariga hurmat hissi sayozlashib borayotgani achinarli holdir. Bu borada muhtaram prezidentimiz ham juda ko‘p bor ta’kidlab o‘tadilar. Jumladan, “Avvallari biror oila ajrashsa, mahallada duv-duv gap bo‘lardi, butun mahalla oyoqqa turardi. Ajrim — bu katta fojia. Albatta, barchamizning istagimiz, tilagimiz bitta: qani endi, yurtimizda ajrim degan noxush holatning o‘zi bo‘lmasa. Oilalar parokanda, bolalar tirik yetim bo‘lib, sarson-sargardon bo‘lmasa. Men bir fikrni qayta-qayta aytishdan charchamayman. Oila — bu mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor”, — deya ta’kidlaydi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev.[1] Haqiqatdan ham bir oilaning barbod bo‘lishi jamiyat uchun bu juda katta inqiroz sanaladi. Birgina ajrim tufayli oilalar parokanda, farzandlar yetim bo‘lib qolmoqda. Bunday holatlar yuzaga kelishini oldini olish

uchun esa oilaviy munosabatlarda er-xotinlar bir-birlariga yaxshi munosabatda bo‘lib, bir-birlarini hurmat qilib, tushunib yashashlari lozim.

O‘zbekiston psixologlari tomonidan o‘zbek oilalariga xos muammolarni o‘rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila va nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o‘rganilib, tahlil qilinib kelinmoqda.

Mamlakatimiz hamda xalqimizning tinch va xotirjam bo‘lishida oilalarning totuvligi ham katta ahamiyatga egadir. Ammo achinarli tomoni shundaki, hozirgi kunda ajrimlar sonining ko‘payib borayotganligiga oilalarda uchrab turadigan er-xotin o‘rtasida nizolarning uchrab turishi ham ajrimlarga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, nizo atamasi “bahs, tortishuv, janjal, to‘qnashuv, kurash” degan ma’noni anglatadi. [2] Oila tinch, mustahkam, halol-pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta va farovon bo‘ladi. Ming afsuslar bo‘lsinki, so‘nggi yillarda oilaviy ajrimlar ko‘payib ketdi. Bu borada prezidentimizning oilaviy ajrimlar haqida fikrlarini bildirib, ularni oldini olish bo‘yicha samarali ishlar olib borish zarurligi haqida aytib o‘tganlar. “Keyingi paytda oilaviy ajrimlarning oldini olish bo‘yicha samarali ish olib borilmoqda. Buni ajralish yoqasiga kelib qolgan 23 mingga yaqin oila yarashtirilgani, ajrimlar soni mingdan ziyodga kamaygani ham ko‘rsatib turibdi. Lekin bir achchiq haqiqatni tan olishimiz kerak. Bu raqamlar hamon yuqori bo‘lib qolmoqda. O‘tgan yili 28 mingdan ziyod oila ajralib ketgani ham fikrimizni tasdiqlaydi”, — deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.[3] Darhaqiqat, nizolar ortidan jarimlar soni ko‘payib ketmoqda.Buning oqibatida esa qanchadan-qancha oilalarning obro‘si to‘kilmoqda. Ajrim oqibatida “boshi ochiq” ayol va “bo‘ydoq” erkaklar paydo bo‘lib kelmoqda.

Bu holat odatda jamiyatda zino va hayosizliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lib, ma’naviy muhitni buzilishiga olib kelmoqda. Oqibatda ba’zi “boshi ochiq” yoshgina ayollar noqonuniy ikkinchi, uchinchi va hatto to‘rtinchi xotinlikka ham rozi bo‘lmoqdalar. O‘rtadagi farzandlar tirik yetim bo‘lib, bechora farzandlar ushbu holatdan sarson va sargardon bo‘lib, nima qilishni bilmay qolmoqda. Otasiga boray desa ona norozi, onasiga boray desa ota ruhsat bermaydi. Bola ikki o‘tni orasida qolib, bir qancha mashaqqatlarga duch kelmoqda. Natijada esa bolaning tarbiyasi buzilmoqda. Ota-ona ajrimi aksar hollarda farzandni noqobil bo‘lib voyaga yetishiga sabab bo‘lmoqda. Afsuski, qarovsiz qolayotgan, ota-onasi bor ba’zi bolalarni mehribonlik uylariga topshirish holatlariga ham duch kelmoqdamiz. Oilaviy ajrimlarning zararli oqibatlari yuqoridagi holatlardan boshqa bir qancha zarar va ziyonlari ham mavjud. Ajralishning asoratlari oila a’zolari va qarindosh-urug‘lar o‘rtasida nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoqda. Demak, oilaning buzilishi va uning oqibatida yuzaga keladigan turli asoratlar ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiyaning tadqiqot predmeti sifatida keng o‘rganishni taqozo etadi.

Oila qo‘rg‘onining poydevori, uning mustahkam qal’asi, er-xotinni mahkam bog‘lovchi rishtasi nikoh sanaladi. Nikoh insonlar jamiyatida eng muqaddas bitim hisoblanadi. Chunki hayotda halol va haromni ajratish, er-xotinning haq-huquqlariga rioya etish, oila qurish, inson naslining davomiyligini ta’minlash, yosh avlod tarbiyasi

kabi muhim masalalarning hammasi shar’iy nikohga bog‘liqdir. Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi. Ming afsuslar bo‘lsinki, so‘nggi yillarda oilaviy ajrimlar ko‘payib ketmoqda. Quyida oilaviy ajrimning salbiy oqibatlaridan ba’zilarini bayon qilamiz:

1.Ajrashgan er va xotinning hech bo‘lmaganda obro‘si to‘kilishi. Erga nisbatan “bitta xotinni eplay olmadi, yaxshi odam bo‘lganda ayoli bilan chiroyli muomala qilib yashar edi”, degan gap-so‘zlar, ayolga nisbatan esa “erining xizmatini qilolmadi, yaxshi ayol bo‘lganida erining izmidan chiqmasdan, murosa qilib, tinchgina yashar edi”, degan qarashlar kelib chiqadi.

2.O‘rtadagi farzandlarni tirik yetim bo‘lib, sarson bo‘lishi. Bechora farzandlar o‘rtada sarson va sargardon bo‘lib, nima qilishni bilmaydi. Otasiga boray desa ona norozi, onasiga boray desa ota ruxsat bermaydi. Otasi bilan suhbatlashsa, “onang unday, onang munday” deganga o‘xshagan gaplarni gapirib bolaga onasini yomonlaydi va yomon ko‘rsatishga harakat qiladi. Onasi bilan gaplashsa, “otang bunday, otang unday” degan gaplarni gapirib bolaga otasini yomonlaydi. Natijada bola ikki o‘tni orasida qolib, bir qancha mashaqqatlarga duch keladi. Tarbiyasi buziladi. Ota-ona ajrimi aksar hollarda farzandni noqobil bo‘lib voyaga yetishiga sabab bo‘ladi. Afsuski, qarovsiz qolayotgan, ota-onasi bor ba’zi bolalarni mehribonlik uylariga topshirish holatlari ham uchramoqda.

3.Ajrashuvchi ikki yoshning ota-onalarining mashaqqat chekishi. Ota-ona orzu havas qilib, qancha mehnat-mashaqqat va qiyinchiliklar bilan farzandini to‘y qilib: “Zimmamdagi vazifani bajardim, bolamni oilali qildim” deb endi erkin nafas olib turgan paytda farzandini oilasi buzilsa, ota-onaga moddiy va ma’naviy jihatdan qattiq zarba bo‘ladi. Ota-ona va boshqa barcha qarindoshlar ruhiy iztirobga tushadi.

Ushbu keltirilgan oilaviy ajrimlar natijasida yuzaga kelayotgan salbiy oqibatlar albatta inson halovatini yo‘qolishiga olib keladi. Qalb halovati esa inson hayotining mazmunidir. Mutaxassislar kuzatuviga ko‘ra, turmushning dastlabki uch yilida ajralish uchun eng ko‘p ehtimollik bo‘larkan. Sababi, bu vaqtga kelib er-xotin bir-birini anchagina bilib, xato-kamchiliklarini ko‘rib, bir-biridan to‘yish hissi paydo bo‘lishi aniqlangan. Mana shu davrdan eson-omon o‘tib olgan oila yanada mustahkamlanar ekan. Har bir oilada er-xotin tinch-totuv, ahil-inoq ravishda, baxt nashidasini surib yashashi ayni muddaodir. Buning uchun hamma harakat qiladi. Ammo, jon bor joyda janjal bor, deganlaridek, kishilar istamasalar ham, oila a’zolari – er-xotin orasida tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar va urish-janjallar chiqib turishi bor. Ushbu holatni to‘g‘ri hal qilish ham oilaning va uning a’zolarining saodatiga xizmat qiladigan muhim omillardan biridir.

Bu masalada ikki taraf ham bir-birini yaxshi tushunishi, ayol erning, er ayolning rioyasini bajarishi lozim. Ikkovlari bir-birlarining odatlarini, nimadan xafa va nimadan xursand bo‘lishlarini, ruhiy kechinmalarida va kayfiyatlarida bo‘ladigan o‘zgarishlarni yaxshi tushunib yetishlari zarur. So‘ngra bir-birlarini xafa qiladigan harakatlardan yiroq bo‘lib, xursand qiladigan narsalarga yaqin bo‘lishga harakat qilishlari kerak.

Er-xotin orasidagi kelishmovchilikni bartaraf qilishda va ularni oldini olishda quyidagi xulosa va tavsiyalarni aytib o‘tishni lozim topdik:

1. Er-xotin orasidagi muammo haqiqatda ham ajrim darajasiga borib yetganmi yoki faqatgina tushunmovchilikdan iboratmi, shuni aniqlab olish kerak. Agar shuni anglab yetilsa va ikki taraf bir-birini tushunishi lozim.

2. Er-xotinning har biri muammo haqidagi o‘z tushunchasini ochiq aytishi, bir-biriga e’tibor bilan tinglashi kerak.

3. Er-xotin bir-birini xatosini anglasa bir-birini tushunishi oson kechadi va nizolarni oldini olish mumkin bo‘ladi.

4. Er-xotin orasidagi kelishmovchilikni bartaraf qilishda ikki taraf ham bir-birining asl tabiatida bor narsalarga sabr qilishi kerak.

5.Er-xotin orasidagi nizoni bartaraf qilishda har ikki taraf ham bir pog‘ana past tushishga tayyor turishlari kerak bo‘ladi. Chunki har kim aytganida turib olsa, muammoni hal qilish qiyinlashadi.

6.Bir-birlarining xatolarini, qoqilish va turtinishlarini kechirishga doimo tayyor turishi ham er-xotin orasidagi nizo va ajrimlarning oldini olishga sabab bo‘ladi.

Ushbu yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarga er-xotinlarning amal qilishi oilalarda yuzaga kelayotgan er-xotin o‘rtasidagi nizo, tushunmovchiliklarning oldini olishga va kelajakda ajrimlar sonining kamayishiga xizmat qilishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.gazeta.uz/oz/2021/03/06/divorce/

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Uchinchi jild N-tartibli, tuzatilgan 2-nashri. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2020. -B.37

3. V.Karimova Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. T.2007. B.76

4. Ибайдуллаева, У. (2023). Er-xotin o‘rtasidagi yuzaga kelayotgan konfliktlarda oilaviy munosabatlarning o‘rni va ahamiyati. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 461-464.

5. Ибайдуллаева У., Тиркашева М. (2023). Oilaviy nizolar va ajrimlar-jamiyat zavoli. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 467-471.

6. Ibaydullayeva, U. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN PREVENTING CONFLICTS BETWEEN ADOLESCENT. Solution of social problems in management and economy, 1(7), 81-83.

7. У. Ибайдуллаева, М. Тиркашева, Г.Одилова Семейные разводы-как фактор общественного кризиса Вестник интегративной психологии. Выпуск 31, Бухара-Ярославль, Россия. 2024.

8. У. Ибайдуллаева Причины конфликтов между супругами и способы их устранения Вестник интегративной психологии. Выпуск 30, Бухара-Ярославль, Россия. 2023.

9. U.Ibaydullayeva. Oiladagi er va xotin o‘zaro munosabatlari borasida sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.

10. U.Ibaydullayeva, M.Tirkasheva Oilada ajrimlar yuzaga kelishi va unga olib keluvchi sabablar. Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an’analar va istiqbollar mavzusidagi 1- xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax-2023